

## SILLIQ MUSKULLARNING XUSUSIYATLARI

**Jo'raboyev Shaxriyor G'ayratbek o'g'li**  
**Zaynabiddinov Anvar Erkinjonovich**  
**Mutalipov Azizbek Abdullajon o'g'li**  
*Andijon davlat universiteti*  
*E-mail: shakhriyor.juraboev@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada muskullarning guruhlari, tuzilishi, muhim vazifalari, shuningdek silliq muskullarning qo'zg'aluvchanlik, qo'zg'alishni o'tkazish, qisqarish, elastiklik, plastiklik, chuziluvchanlik, tonuslik va avtomatiya xususiyatlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Sarkolemma, izotrop disk, miofibrilla, ikkilamchi titanus, bioelektrik.

**Abstract.** This article describes the groups of muscles, their structure, important functions, as well as the excitability, transmission, contractility, elasticity, plasticity, contractility, tonicity and automaticity of smooth muscles.

**Key words.** Sarcolemma, isotropic disc, myofibril, secondary titanus, bioelectricity.

**Аннотация.** В данной статье описаны группы мышц, их строение, важные функции, а также возбудимость, трансмиссия, сократимость, эластичность, пластичность, сократимость, тонус и автоматизм гладких мышц.

**Ключевые слова.** Сарколемма, изотропный диск, миофибрилла, вторичный титан, биоэлектричество.

Nerv va muskul to'qimalari faoliyatlarining turli tomonlari fiziologiyada turlicha ifodalanadi: fiziologik tinchlik holati, qo'zg'algan va tormozlangan holatlar. Organizmda mutloq tinchlik holati bo'lmaydi, chunki organism tinch, harakatsiz turganda ham organlari ishlab turadi. Organizm toki tirik ekan, barcha organ va to'qimalarida moddalar almashinuvi hech to'xtamaydi. Shu sababli tinchlik holati deganda, nisbiy, organizmdagi fiziologik tinchlik holat tushuniladi. Fiziologik tinchlik holat muayyan organ yoki to'qimaning o'ziga xos faollik belgilarini namoyon qilmay turgan holatdir. Masalan, muayyan muskul qisqarmay turgan bo'lsa, uning shu holati fiziologik tinchlik holat deb qaraladi.

Organizmning barcha hujayralari ta'sirlanish xususiyatiga ega. Istalgan tirik hujayra tashqi va ichki muhitdan kelayotgan ta'sirotda javoban o'zidagi moddalar almashinuvini ma'lum yonilishda o'zgartiradi. Ta'sirlanuvchanlik hayvonot va o'simlik olamining yashashi va rivojlanishida nihoyatda katta rol o'ynaydi. Binobarin, bu xususiyat barcha to'qimalar uchun, jumladan, nerv va muskul to'qimalari uchun ham xosdir. Organizmlar evolyutsiyasida, nerv, muskul va bez to'qimalari ta'sirlanuvchanlik bilan bir qatorda qo'zg'aluvchanlik xususiyatini ham kasb etgan. Nerv, muskul va bez to'qimalarida ta'sirotda javoban yuzaga kelgan reaksiyani o'zi bo'ylab tarqatib, qo'zg'alib javob beradi. Qo'zqaluvchan to'qima qo'zg'alishi uchun unga ta'sirotda (qitiqlagich) ta'sir etishi kerak. Qo'zg'aluvchan to'qimani qo'zgatish qobiliyatiga ega bo'lgan har bir narsa, istalgan materiya harakati ta'sirotda (qitiqlagich) bo'la oladi. Ichki va tashqi ta'sirotda farq qilinadi. Tevarak muhitda yuz beradigan turli-tuman o'zgarishlar, masalan: yorug'lik, tovush, ximik, mexanik o'zgarishlar tashqi ta'sirotda jumlasiga kiradi. Ichki ta'sirotda tana ichida kuzatiladigan ximik, fizik, biologik o'zgarishlar kiradi: qondagi karbonat angidrid, gormonlar konsentratsiyasining o'zgarishi, nerv impulslari va boshqalar shular jumlasidandir. Ta'sirotda o'zlarining kelib

chiqishiga qarab: fizik, mexanik, harorat, elektrik, yorug’lik, tovush ta’sirotlari, nur ta’sirotlari, (alfa, beta va gamma nurlari, rentgen nurlari), ximik (gormonlar, kislotalar, ishqorlar, tuzlar, zaharlar) va biologik (mikroblar, viruslar, zamburuglar) ta’sirotchilariga bo’linadi. Ta’sirotchilar to’qima uchun biologik ahamiyati jihatidan adekvat va noadekvat (indamvat) ta’sirotchilar deb ajratiladi. Muayyan to’qimaga odatdagi tabiiy sharoitda ta’sir qilib turadigan, o’sha to’qimaga xos bo’lgan ta’sirot adekvat ta’sirotidir. To’qima adekvat ta’sirotga evolyutsiya davrida moslashgan bo’ladi. Masalan, kuz uchun yorug’lik, muskullar uchun nerv impulsi adekvat ta’sirotchidir. Bir to’qima yoki organ uchun bir necha adekvat ta’sirotchi bo’lishi mumkin. Chunonchi, uzunchoq miyadagi nafas markazi qondagi karbonat angidrid bilan ham, nerv impulsi bilan ham qo’zg’aladi. Muayyan to’qima uchun xos bo’lmagan ta’sirot noadekvat ta’sirotidir. Muskul faqatgina adekvat ta’sirot ostida qo’zg’al olmay, tabiiy sharoitda ta’sir etmaydigan ta’sirotlar ta’sirida ham qo’zg’aladi. Bunday ta’sirotlarga kislota, ishqor, elektr toki, mexanik ta’sirotlar,

issiqlik va boshqalar kiradi. Bo’larning har biri o’z holicha ta’sir etib, muskulni qo’zgatishi mumkin.

Organizmdagi barcha muskullar ikki guruhga: ko’ndalang-targil va silliq muskullarga bo’linadi. Muskullarning asosiy vazifasi qisqarish bo’lib, ularning yordamida organizmdagi barcha harakatlar vujudga keladi. Ko’ndalang-targil muskullar (skelet muskullari) odam va hayvonlarning faol harakat qilishini ta’minlaydi. Ichki organlarning devorlari silliq muskullardan tuzilganligi sababli, barcha ichki organlarning harakatlari ana shu muskullarning faoliyati bilan bog’liq. Masalan, oziqalarning hazm organlari bo’ylab harakati, qon tomirlarining kengayibtorayishi va hokazo.

Muskullar maxsus parda-sarkolemma bilan o’ralgan muskul tolalaridan tuzilgan. Muskul tolalarining protoplazmatik moddasi va qisqaruvchi talaygina ipsimon elementlari-miofibrillari bor. Muskul tolasi pardasining ustida yadrolari joylashgan. Miofibrillalar muskulning asosiy funksional elementlaridir. Ko’ndalang-targil muskul miofibrillalari mikroskop ostida birin-ketin joylashgan qoramtir va rangsiz disklarga bo’lingandek bo’lib ko’rinadi, bu disklar A va I harflari bilan ifodalanadi. A disk (anizotrop disk) kuchli darajada ikki yoqlama nur sindiradigan bo’ladi, I disk esa (izotrop disk) ikki yoqlama nur sindirish qobiliyatiga ega emas. Bu tolalar ikki xil nur sindirganliklari uchun mikroskop ostida qaralganda ko’ndalang-targil bo’lib ko’rinadi. Miofibrillalarning anizotrop disklari muskulning qisqarishini ta’minlasa, izotrop disklari ularga elastiklik beradi. Muskul tolalari ranglari bilan ham bir-biridan farq qiladi. Qizil rangli tolalar sarkoplazmaga boy, miofibrillalari kam bo’ladi, oqish rangli tolalarning sarkoplazmasi oz, miofibrillalari esa ko’p bo’ladi. Silliq muskullar ko’ndalang-targil muskullardan shu bilan farq qiladiki, ular mikroskop ostiga qo’yib qaraganda navbat bilan joylashuvi, qoramtir va rangsiz disklari ko’rinmaydi. Muskullar ish bajarish darajasiga qarab qon, limfa tomirlari va nerv tolalari bilan ta’minlangan.

Muskulga muayyan miqdordagi kuch (yuk) bilan ta’sir etsak, u chuziladi. Chuzilish darajasi yukning miqdoriga bog’liq bo’ladi. Muskul chuzilgandan keyin unga ta’sir etgan yukni olib tashlasak, u avvalgi holatini egallashga intiladi. Muskul biror kuch yordamida chuzilgandan keyin uning dastlabki holatini egallashga intilishiga va ma’lum darajada egallay olishiga muskul elastikligi deyiladi. Muskul chuzilgandan keyin hamma vaqt ham o’zining dastlabki holatini to’la egallay olmaydi. Muskul kuchliroq chuzilsa, u dastlabki holatiga to’la

qaytmaydi. Oqibatda muayyan vaqtgacha shakli va holati bir qadar o’zgarib qoladi. Muskul shakli, holatining o’zgarib qolishi unga ta’sir qilgan kuch bilan birga plastikligiga ham bog’liq.

Organizmdagi muskullar har gal qisqarganda ma’lum ish bajaradi. Muskullarning bajargan ishi kilogramm-metr bilan ifodalanadi. Masalan, muskul 1 kg yukni 1 m balandlikka ko’tarsa, bir kilogramm-metr(1kgm) ish bajargan bo’ladi. Muskulning kuchini aniqlash uchun u ko’tara oladigan maksimal yuk aniqlanadi. Sharoit birday bo’lganda muskul kuchi uning uzunligiga emas, balki ko’ndalang kesimiga bog’liq: muskulning fiziologik ko’ndalang kesimi, ya’ni muskuldagi hamma tolalar ko’ndalang kesimlarining yig’indisi qancha katta bo’lsa, u ko’tara oladigan yuk o’shancha katta bo’ladi. Tolalari parallel holda o’rnashgan muskullarning fiziologik ko’ndalang kesimi geometrik ko’ndalang kesimiga mos keladi, tolalari qiyshiq yotgan (masalan, patsimon tolali muskullar) muskullarda tolalar ko’ndalang kesimlarining yig’indisi muskulning geometrik ko’ndalang kesimidan ancha ortiq bo’ladi. Shu sababli tolalari qiyshiq yotgan muskulning kuchi tolalari parallel yotgan xuddi shunday qalinlikdagi muskulning kuchidan ancha ortiq bo’ladi. Har xil muskullarning kuchini taqqoslab ko’ra bilmoq uchun muskul ko’tara oladigan maksimal yuk fiziologik ko’ndalang kesimining santimetr kvadratlarining soniga bo’linadi va shu yo’l bilan muskulning mutloq kuchi aniqlanadi. Odam boldir muskulining mutloq kuchi 5,9 kg sm kvadrat, baqaniki 3 kg sm kvadrat atrofida bo’ladi. Bir qator tajribalar muskul o’rtacha yuk ko’targanda ko’proq foydali ish bajarishini isbotladi, ya’ni yuk o’rtacha bo’lganda muskulning vaqt birligida bajargan ishi bilan o’lchanadigan quvvati maksimal darajaga yetadi.

Qo’zg’aluvchan to’qimalarda elektr hodisalari bo’lishining kashf etilishi Luidji Galvanining nomi bilan bog’langandir. Galvani «hayvonlardagi elektr» ni kashf etishga olib kelgan dastlabki tekshirishlarini 1780 yilda o’tkazgan edi (Galvani tirik to’qimalardan topilgan elektrni hayvonlardagi elektr deb atagan edi). Galvani o’z tajribalarida baqaning oyoqlari balkonning temir panjarasiga mis ilmoq bilan osib

qo’yilsa, ular panjaraga har gal tekkanida titrab tushganini payqadi. Galvani ana shu kuzatishlarni va boshqa tajribalarini 1791 yilda bosilib chiqqan «Muskul harakatidagi elektr kuchlari to’g’risida traktat» nomli mashhur asarida bayon qildi. Uning o’z kitobida yozishicha, orqa miyada elektr toki kelib chiqadi, bu tok mis simlardan o’tib, muskullarni qisqartiradi.

Galvanining zamondoshi, u bilan birday shuhrat qozongan Aleksandr Volta Galvanining tekshirishlariga qiziqib qoldi. Dastlab Volta Galvanining qarashlarini Syoqladi, lekin tez orada hayvonlarda qanday bo’lmasin elektr toki yo’q degan fikrda Aturib oldi. Voltaning e’tirozlari uning o’zi isbot etgan quyidagi faktga asoslangan edi: ikki xil metall birlashtirilganda, Galvani tajribasida mis bilan temir birlashtirilganda potentsiallar farqi vujudga keladi, muskulning qisqarishiga ham sabab shudir. Galvani bilan Volta o’rtasida qiziq ilmiy munozara boshlandi. Bu munozara kuchaygan sari tortishuvchi tomonlarning har biri o’z qarashlarining to’g’riligini isbot etish uchun yangi tajribalar qildi. Galvanining metallarni ishlatmasdan qilgan tajribasi masalani ajrim qilib berdi. Galvanining ikkinchi tajribasi yoki metallsiz qisqarish deb atalgan bu tajriba shundan iborat edi: baqaning quymich nervi ajratib olinib, boldirning ochilgan muskuliga tashlandi: ayni vaqtda muskul qisqardi. Birinchi holda Voltaning Galvani ikki xil metall o’rtasida kelib chiqqan elektrni ko’rgan degan da’vosi «hayvonlarda elektr» borligini shubha ostiga qo’ygan bo’lsa, ikkinchi tajriba Galvanining fikrlarini tasdiqlash uchun hal qiluvchi fakt bo’ldi.

O’tgan asrning o’rtalarida o’tkazilgan va ikkilamchi tetanus yoki ikkilamchi qisqarish deb atalgan tajribalar ayniqsa qiziqarli bo’ldi. Bir muskul-nerv preparatining muskuliga

ikkinchi muskul-nerv preparatining nervi qo’yildi. Birinchi muskul-nerv preparatining nerviga induksion tok bilan ta’sir etilganda nervi birinchi preparatning muskuli ustiga qo’yilgan ikkinchi preparatning muskuli ham qisqardi. Bu hodisa muskul qo’zg’alganda bioelektr hodisalari kelib chiqadi, bular esa ikkinchi muskul-nerv preparatining qo’zg’alishiga sabab bo’ladi deb tushuntirildi.

Silliq muskullar ham qo’zg’aluvchanlik, qo’zg’alishni o’tkazish, qisqarish, elastiklik, plastiklik, chuziluvchanlik, tonuslik va avtomatiya xususiyatlariga ega. Silliq muskullarning qo’zg’aluvchanligi va qo’zg’alishni o’tkazishi ko’ndalang-targil muskullarnikidan past. Qo’zg’alish bu muskullarning barcha tolalari bo’ylab bemaolol tarqala oladi. Silliq muskullar uzoq vaqt qisqarib tura oladi. Ko’ndalang-targil muskullarning yakka qisqarishi sekundning o’ndan yoki yuzdan bir bo’laklari mobaynida davom etsa, silliq muskullarning qisqarishi 100 sekundgacha davom etishi mumkin. Silliq muskullarning uzoq qisqarib tura olishi ularning faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Shuning uchun barcha kovak organlar (qon tomirlari, oshqozon-ichak tizimi, siydik pufagi va boshqalar) ning devori tonik qo’zg’algan holatda bo’ladi. Silliq muskullarning elastikligi ko’ndalang-targil muskullardagiga qaraganda kamroq, bu muskullar yaxshi chuziladi va shaklini yengil o’zgartira oladi (plastiklik). Shu sababli bu muskullardan tuzilgan ichki organlar hajmini tez o’zgartira oladi. Silliq muskullar avtomatikalik xususiyatiga ham ega, ya’ni ular o’zlarida hosil bo’ladigan impulslar ta’sirida qisqara oladi. Ushbu ma’lumotlarga asoslangan holda keyingi tadqiqotlarimiz davomida gidrolizlanuvchi ta’sirlarni silliq muskul hujayralariga voroveloksent effektini aniqlash rejalashtirilgan bo’lib ushbu jarayon silliq muskullar haqida ko’plab yangi ma’lumotlar berishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Алматов К.Т. Алламуратов Ш.И. Одам ва ҳайвонлар физиологияси. Тошкент: ЎзМУ, 2004.– 580 б.
2. Покровский В. М., Коротько Г. Ф. Физиология человека: Учебник в двух томах. - М. Медицина, 2001. - 467с
3. Ноздрачев А.Д., Баранников И.А., Батуев А.С. и др.Общий курс физиологии человека и животных. - М.: Высшая школа, 1991. 1 кн. -511с., 2 кн. - 527с.
4. E.N.Nuritdinov «Odam fiziologiyasi» .T. 2005y
5. P.X.Хайитов, З.Т.Ражамуродов. «Хайвонлар физиологияси.» Т. 2005й
6. Z.T.Rajamurodov, B.Z.Zaripov, B.M.Bozorov. Odam va hayvonlar fiziologiyasi fanidan laboratoriya va amaliy mashg’ulotlar bo’yicha o’quv qo’llanma» T.2005
7. Z.T.Rajamurodov, A.E.Rajabov, B.M.Bozorov. «Odam va hayvonlar fiziologiyasi» Toshkent. Fan.2009.